



NAPOLEON BONAPART TARIXIY SHAXS SIFATIDA

Boborahimov Shoxruhbek Inoyatillo o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6204638>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05 -fevral 2022
Ma'qullandi: 10-fevral 2022
Chop etildi: 15 - fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Sten, Briyenn le Shato,
Napoleon, Letitsiya,
Korsika, Jozefina,
Fontaneblo, Sena, Yelena.

"Agar oxir-oqibatda Yevropa birlashsa, buning uchun, hech narsaga qarashmasdan, biz Napoleondan qarzdor bo'lamiz".

Xiler

Bellok, 1932-yil.

Napoleon Banopart 1768-yil 15-avgustda Korsikaning Ayachcho shahrida tug'iladi. Napoleonga o'lgan amakisining ismi qo'yiladi. Napoleonning amakisi 1767-yil halok bo'lgan edi. Bu kun haqida keyinchalik Napoleonning o'zi: "Men vatanim o'lgan kuni tug'ilganman" deb yozgan edi. Napoleonning otasi Karlo pul topish va farzandlariga bilim berish ilinjida 1778-yili dekabrda o'n va o'n bir yoshdagi ikki o'g'li - Jozef va Napoleon bilan kemaga o'tirib, Fransiyaga yo'l oladi. Uning cho'ntagida Korsika hukumdori, Letitsiya Bonapart husni jamolining shaydosi bo'lgan janob de Marbefning Napoleonlar kambag'allashib

ANNOTATSIYA

"Napoleon Bonapart tarixiy shaxs sifatida" nomli maqolada, Napoeon Bonapartning hayoti va faoliyati, Napoleonning bolalik yillari, Napoleon Bonapartning rafiqasi Jozefinaga uylanish sabablari, Napoleonning vafot etishi va uning sabablari kabi masalalar yoritib beriladi.

qolgan zodagonlardan ekanligini tasdiqlovchi taqdimnomasi ham bor edi. Fransuzlar Karloning kelib chiqishi zodagonlardan ekanini tan oldilar va qirol o'n yil davomida toj-u taxtga qarshi hech qanday hatti-harakat sodir etmagan bu zodagonga ikki ming frank pul berishni, uning ikki o'g'li hamda qizlariga aslzodalarning o'quv muassasalaridan bepul o'rinlar ajratishni buyurdi. Napoleon Sten kollejida ozgina vaqt o'qiganidan so'ng, 1779-yilning may oyida Briengga keladi va bu yerdagi Brien le Shato qirollik harbiy bilim yurtida o'qishni davom ettiradi. Uning akasi Jozef ruhoniylik kiyimini ofitserlik mundiriga almashtirmoqchi bo'lganida Napoleon u haqida shunday deb yozadi: "Jang qilish uchun unga jasorat yetishmaydi.... U yaxshigina gornizon ofitseri bo'lishi mumkin: bo'yi baland, yengil tabiatli, erkin suhbatlashishga



moyil - bularning barchasi uning jamoa tomonidan yaxshi qabul qilinishini ta'minlaydi". 1784-yil sentyabr oyida Napoleon maktab nozirining o'rinbosari Reyno de Monom suhbatidan o'tib, Parij harbiy maktabiga yo'llanma oladi. Bu davrda Napoleon past bo'lyi, qorachadan kelgan, g'amgin, badqovoq va darg'azab, ayni paytda ba'zan safсатаboz va sergap yigitcha. U fanlarni o'zlashtirish bo'yicha 58 talabani ichida 42-o'rinda: bo'lg'usi general uchun juda past ko'rsatkich. Ammo uning harbiy maktabda juda qisqa vaqt bo'lganligi, shuningdek, yolg'izligi va 1785-yil 24-fevralda otasi vafot etganidan keyingi ruhiy holatini ham inobatga olish lozim. Xullas, imtihonlarni zo'rg'a topshirgan Bonapartga quyidagi mazmunda tavsifnoma beriladi: "Odamovi va o'qishda tartibli, har qanday ermaklardan mashg'ulotlarni ma'qul ko'radi va yaxshi mualliflarning kitoblarini o'qishga qiziqadi. Ko'p gapirmaydi, yolg'izlikni xush ko'radi, jizzaki, kibrli va o'ta xudbin. Doimo topqir va javoblari keskin. O'zini juda yaxshi ko'radi, izzattalabligining chegarasi yo'q". (1)

Napoleon Bonapartga 1794-yil 6-fevralda Konvent general unvonini berdi. Lavozimiga tayinlanishdan oldin Bonapart Jozefina ismli ayol bilan tanishadi. Uning yoshi o'ttiz uchda, qachonlardir ko'pchilikni jalb qilgan jozibasi so'nib go'zalligidan asar qolmagan. Jan Taylarning yozishicha, "Napoleon tanishgan paytda Jozefina Direktoriya hukumatida katta mavqega ega bo'lgan Barrasning jazmani edi. Napoleon Jozefinaga uylanish orqali bu nikohga qarshi bo'lmagan Barrasning yordami bilan kattaroq lavozimni

egallashni ko'zlagan bo'lishi ham mumkin. Zero, Jozefinani Napoleonning ukasi Lyusen " tishlari ham sarg'ayib og'zidan yoqimsiz hid kelib qolgan, qomati ham kishini jalb qilmaydigan, yoshligi allaqachon o'tib bo'lgan", deya ta'riflagan. Napoleon nikoh uzugiga "Mening taqdirimdagi ayolga!" deb yozishlarini buyuradi. Uylanganidan ikki kun o'tgach, Napoleon Parijni tark etadi. 1796-yil 26-aprel kuni u Nissaga kelib generallar Massen, Serurye, Lagarp va Ojeroning qo'shinlar tayyorgarligi to'g'risidagi axborotini tingladi. 1796-yil 5-aprel kuni Italiyaga yurishni boshlaydi. Rus sarkardasi A.V. Suvorov bu Italiya yurishining ta'siri ostida insoniyat tarixidagi uchta eng buyuk qo'mondonlar deb Sezarni, Gannibalni va Napoleonn e'tirof etadi. "O, bu yoshgina Bonapart qanday qadam tashlabdi! U qahramon, u mo'jizaviy bahodir, u afsungar!", deya uni ta'riflaydi Suvorov.(2)

Biz bilamizki Napoleon Bonapart 1814-yil 20-aprel kuni eski gvardiya bilan xayrlashib, Italiya qirg'oqlari yaqinidagi Elba oroliga faxriy surgunga jo'nab ketadi. Napoleon Elba oroliga o'zi bilan uch million frank mablag' olib ketadi. Fransuz tarixchilari yozishlaricha, Napoleon Elba orolida taqdirga tan berib yashayotgan edi. Ammo bir nechta sabablar uni Fransiyaga qaytish haqidagi qaror qabul qilishiga majbur qildi. Bu sabablardan biri, Fontanebloda Napoleonning taxtdan voz kechishi haqida kelishuv shartlarining bajarilmaganligi bo'ldi. "U shon-shuhratda buyuk edi, xo'rlik va haqoratda ham buyuk bo'lib qoldi", deb yozgan edi o'sha davr gazetalaridan biri. Qo'llarini beliga qo'yan bir odam



cho'qqida dengizga tikilib turibdi. U yolg'iz. Semiz va past bo'yli bu odam-Napoleon. Uning boshi katta, ko'rinishi salobatli, yelkalari kuchli, kaltabaqay. Napoleonning mushaklari qancha kuchli bo'lsa, asablari shuncha zaif edi. Buyruq berishga o'rganib qolgan bu odam sal bo'lsa ham majburlashni eslatuvchi biror so'z yoki harakatni ko'tara olmasdi. Asabalari juda toliqqan, u issiq vanna bilan davolanardi. O'limiga uch hafta qolganida, aprelning o'rtalarida Napoleon Bonapart vasiyatnoma yozadi. Bu vasiyatnomada u o'ziga yaqin deb hisoblagan kishilarni, hatto xizmatkorlarni ham unutmaydi. "Men ingliz hukumron doiralari va ularning yollanma qotillari qo'lida bevaqt o'layapman.... Mening xokim o'zim benihoya sevgan fransuz xalqi orasida, Sena sohillarida dafn etilishini istayman" deb yozadi u vasiyatnomasida. Imperator Napoleon Bonapart 1821-yil 5-may kuni Muqaddas Yelena orolida vafot etadi va shu yerga dafn etiladi. Keyinchalik, 1840-yilda uning xoki Parijga ko'chiriladi. Uning o'limi sabablari uzoq

vaqt bahslarga sabab bo'ldi. 1995-yilda AQSH ning laboratoriyalaridan birida Napoleonning soch qoldiqlari tahlil qilinib, u margimush bilan zaharlangan degan xulosaga kelindi.(3)

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Yangi Yevropaning qurulishiga katta hissa qo'shgan ulkan harbiy este'dod va katta iqtidor sohibi albatta Napoleon Bonapart hisoblanadi. Napoleon Bonapartning bolalik yillari juda qiyinchilik bilan o'tdi. Hattoki Napoleon o'n bir yoshidayoq kambag'alligi tufayli Korsika hukumdori Letitsiyaning Napoleonlarining kambag'allashib qolganini tasdiqlovchi taqdimnoma orqali Sten kollejida o'qishga kiganligi ham fikrimizni isbotlaydi. Keyinchalik Napoleonning qiyinchilik bilan qilgan mehnatlari o'z samarasini berib u buyuk sarkarda darajasiga erishadi. Rus sarkardasi A.V.Suvorovning "Insoniyat tarixidagi uchta eng buyuk qo'mondonlar" deb Sezar va Gannibal qatoriga Napoleoni ham kirgizishi, uning qay darajada qudratli ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shuhrat Ergashev "Uch buyuk fransuz". Toshkent "O'zbekiston"- 2016.
2. Shuhrat Ergashev " Jahon tarixi yangi davr XVI-XVIII asrlar" 1-qism. Toshkent. "O'zbekiston"-2016.
3. Sardor Umarov "Jahon tarixi". Samarqand-2019.
4. Bozorov Quvonchbek Dilmurod o'g'li, Panjiyev Jamshid Tohir o'g'li, & Xolboyev Jorabek Lutfullo og'li. (2021). Abu Ali ibn Sina and Medicine. Texas Journal of Medical Science, 3, 44-47.
5. Назиров Б. С. СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИЛК ОТ СПОРТИ КЛУБЛАРИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – Т. 4. – №. 11.
6. Nazirov B. S. MASTER WHO DEVOTED HIS LIFE TO SPORTS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – C. 78-82.



7. Nazirov B. S. The first horse clubs in surkhan oasis //ACADEMICIA:AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 2. – C. 1228-1231.
8. Nazirov B. S. Establishment of a new legal system in the field of physical culture and sports in Uzbekistan in 2017–2020 //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 10. – C. 1081-1084.
9. Nazirov B. S. O'ZBEKISTONDA 2017-2020 YILLARDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT SOHASIDA YANGI ME'YORIY-HUQUQIY TIZIMNING YO'LGA QO'YILISHI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 1687-1693.
10. Mamayusupov, O. B., & Bozorov, Q. D. (2022). BUYUK IPAK YO'LIMULOQOT VA HAMKORLIK YO'LI. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 115-122. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-115-122>